

BAZEL III STANDARTLARI SHAROITIDA BANK KAPITALI INSTRUMENTLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Abduraimova Fazilat Hikmatulla qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Fazilatfazilat92@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22719458>

Qabul qilindi: 4-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 11-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 12-sentabr 2026-yil

Annotatsiya.

Tezida Bazel III standartlari talablari asosida bank kapitali instrumentlari subordinar obligatsiyalar, muddatsiz vositalar va shartli konvertatsiya qilinuvchi instrumentlarni O'zbekiston bank amaliyotida rivojlantirish istiqbollari tadqiq etilgan. Kapital toifalari va tegishli instrumentlar tizimlashtirilgan, 2026-yildan kuchga kirgan kapital monandligi to'g'risidagi yangi nizomning yaratgan huquqiy imkoniyatlari tahlil qilinib, mazkur instrumentlar bozorini shakllantirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar:

Bazel III, kapital instrumentlari, subordinar obligatsiya, shartli konvertatsiya, birinchi darajali kapital, kapital monandligi, kapital bozori.

2008-yilgi jahon moliyaviy inqirozi bank kapitalining nafaqat miqdori, balki sifati ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Shu sababli Bazel qo'mitasi tomonidan qabul qilingan Bazel III standartlarida regulativ kapital uch toifaga ajratilib, har bir toifaga kiritiladigan instrumentlarga zararlarni qoplash qobiliyatiga qarab qat'iy mezonlar o'rnatildi¹ (1-jadval).

1-jadval

Bazel III standartlari bo'yicha bank kapitali toifalari va tegishli instrumentlar²

Kapital toifasi	Asosiy instrumentlar	Tavsifi
Bazaviy birinchi darajali kapital (CET1)	Oddiy aksiyalar, emissiya daromadi, taqsimlanmagan foyda, zaxira fondlari	Zararlarni qoplash qobiliyati eng yuqori; muddatsiz; to'lovlar bank ixtiyorida
Qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1)	Muddatsiz subordinar obligatsiyalar va shartli konvertatsiya qilinuvchi instrumentlar	Muddatsiz; kupon to'lovini bekor qilish mumkin; belgilangan holatda hisobdan chiqariladi yoki aksiyaga aylantiriladi

¹ Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems. – Basel: BIS, 2010 (rev. 2011).

² Manba: Bazel qo'mitasi hujjatlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Ikkinchi darajali kapital (Tier 2)	Muddatli subordinar qarz va obligatsiyalar, umumiy zaxiralarning bir qismi	Kamida besh yil muddatli; so'nggi besh yilda kapitalga kiritiladigan qismi bosqichma- bosqich kamayadi
---------------------------------------	---	---

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, kapital sifatining yadrosi oddiy aksiyalar va taqsimlanmagan foydadan iborat bazaviy kapital hisoblanadi, qolgan instrumentlar esa uni to'ldiruvchi vositalar bo'lib xizmat qiladi. Bazel III bo'yicha kapitalning minimal miqdoriy tarkibi 1-rasmda keltirilgan.

1-rasm. Bazel III standartlari bo'yicha bank kapitalining minimal tarkibi, risk bilan tortilgan aktivlarga nisbatan foizda³

Rasmdan ko'rinib turibdiki, kapital konservatsiya buferini hisobga olganda jami minimal talab 10,5 foizni tashkil etadi, shundan 7 foizlik qismi eng yuqori sifatli instrumentlar hisobiga shakllantirilishi shart. Ilmiy adabiyotda ham kapital sifati masalasi markaziy o'rin tutadi: A.Admati va M.Xellvig yuqori sifatli kapital talablari bank xizmatlari narxini sezilarli oshirmasdan tizimli barqarorlikni mustahkamlashini asoslab bergan⁴.

O'zbekiston bank amaliyotida esa banklar hozirga qadar asosan aksiyadorlar badallari va taqsimlanmagan foydaga tayanib kelmoqda: subordinar instrumentlardan foydalanish ko'lami cheklangan, muddatsiz va shartli konvertatsiya qilinuvchi vositalar bozori deyarli shakllanmagan. Holbuki, milliy prudensial talablar xalqaro minimal darajadan sezilarli yuqori - regulativ kapital monandligi bo'yicha 13 foiz (Bazel III bo'yicha 8 foiz), birinchi darajali kapital bo'yicha 10 foiz (6 foiz), leveraj bo'yicha 6 foiz (3 foiz) etib belgilangan bo'lib, aktivlarning jadal o'sishi sharoitida bunday talablarni faqat an'anaviy manbalar hisobiga bajarish tobora qiyinlashib boradi.

Bu boradagi eng muhim institutsional yangilik 2026-yil 1-yanvardan kuchga kirgan banklar kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi yangi nizom bo'ldi. Unda, birinchidan, birinchi darajali kapital regulativ kapitalning kamida 50 foizini tashkil etishi, ikkinchi darajali kapitalning birinchi darajali kapitaldan oshgan qismi hisobga olinmasligi belgilangan; ikkinchidan, majburiyat sifatida tasniflangan kapital vositalarining bank bazaviy kapitali monandlik koeffitsiyentini belgilangan talabdan kamida bir foiz band yuqori darajaga yetkazish maqsadida oddiy aksiyalarga konvertatsiya qilinishi yoki hisobdan chiqarilishi sharti nazarda tutilgan⁵. Boshqacha aytganda, xalqaro amaliyotdagi shartli konvertatsiya mexanizmi uchun milliy huquqiy asos yaratildi.

Tartibga soluvchining strategik yo'nalishi ham aniq: Bazel III standartlarini to'liq joriy etish 2028-yil oxirigacha, banklarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga to'liq o'tkazish esa 2027-yil oxirigacha rejalashtirilgan; ayni paytda bank tizimida kapital monandligi 18 foiz atrofida bo'lib, me'yoriy talabdan sezilarli yuqori⁶. Mavjud zaxira instrumentlar bozorini bosqichma-bosqich, inqirozsiz sharoitda shakllantirish uchun qulay vaqt oralig'ini beradi. Zero, davlatimiz rahbari 2019-yildayoq "Endi banklar resurs jalb etish bo'yicha "o'z aravasini o'zi tortishi" kerak" deya ta'kidlagan edi⁷ -kapital instrumentlari bozori aynan shu vazifaning kapital qismidagi yechimidir.

³ Manba: Bazel qo'mitasi hujjatlari asosida muallif tomonidan Excel dasturida tuzildi.

⁴ Admati A., Hellwig M. The Bankers' New Clothes: What's Wrong with Banking and What to Do about It. – Princeton: Princeton University Press, 2013.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 2-oktabrdagi 21/6-son qarori bilan tasdiqlangan "Banklar kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizom" (ro'yxat raqami 3697, 28.10.2025-y., 2026-yil 1-yanvardan kuchda) // <https://lex.uz>

⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki raisi T.Ishmetovning xalqaro investitsiya hamjamiyatiga murojaatidagi ma'lumotlar (2025-yil oktabr) // <https://www.gazeta.uz/oz/2025/10/23/bank-sector-uzbekistan/>

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 25-oktabrda bank tizimini isloh qilish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqidan // <https://xabar.uz/uz/iqtisodiyot/shavkat-mirziyoyev-endi-banklar>

Fikrimizcha, ushbu bozorni shakllantirish uchun quyidagi ketma-ketlik maqsadga muvofiq. Birinchi bosqichda yirik banklar misolida dastlabki namunaviy subordinar va AT1-emissiyalarni tayyorlash -prospekt, narxlash va investorlarga axborot berish amaliyotini yaratish lozim. Ikkinchi bosqichda subordinar obligatsiyalarni fond birjasining alohida segmentida muomalaga kiritish, bozor tuzuvchilar institutini shakllantirish hamda sug'urta kompaniyalari va investitsiya fondlarining ushbu instrumentlarga investitsiya kiritishiga oid cheklovlarni qayta ko'rib chiqish zarur. Uchinchi bosqichda kredit reytinglari tizimini rivojlantirish va emitent banklarning axborot shaffofligini oshirish orqali instrumentlarning ikkilamchi bozorini jonlantirish talab etiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yangi tartibga solish tizimi kapital instrumentlari uchun huquqiy poydevorni yaratib berdi -endi masala huquqiy imkoniyatni bozor amaliyotiga aylantirishga ko'chdi. Ushbu vazifaning hal etilishi banklarga kapital jalb etish kanallarini diversifikatsiya qilish, aksiyadorlar ulushini suyultirmasdan kapital bazasini mustahkamlash hamda Bazel III talablariga izchil o'tish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 2-oktabrdagi 21/6-son qarori bilan tasdiqlangan "Banklar kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizom" (ro'yxat raqami 3697, 28.10.2025-y.) // <https://lex.uz>
2. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems. – Basel: BIS, 2010 (rev. 2011).
3. Admati A., Hellwig M. The Bankers' New Clothes: What's Wrong with Banking and What to Do about It. – Princeton: Princeton University Press, 2013.
4. Myers S., Majluf N. Corporate financing and investment decisions when firms have information that investors do not have // Journal of Financial Economics. – 1984. – Vol. 13. – P. 187–221.
5. Lavrushin O.I. (red.) Bankovskoye delo: uchebnik. – M.: KNORUS, 2016. – 800 s.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti // www.cbu.uz